



## **Toshkent shahrida umumiy o`rta ta`lim.**

2018-2019 o`quv yili boshiga tumanlar bo`yicha umumta`lim muassasalarining ma`lumotlari, Xalq ta`limi vazirligi va boshqa vazirliklar, shuningdek ta`lim yo`nalishi bo`yicha litsenziyasi mavjud bo`lgan nodavlat ta`lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan davlat statistika hisobotlari asosida shakllantirilgan.

## **Toshkent shahrida umumiy o`rta ta`lim bo`yicha statistik ma`lumotlar manbalari:**



### ***1. Xalq ta`limi vazirligi bo`yicha umumta`lim muassasalari***



### ***2. Nodavlat umumta`lim muassasalari***



### ***3. Boshqa vazirlik va idoralar tasarrufidagi umumta`lim muassasalari***



Toshkent shahri bo'yicha 2018/2019 o'quv yilida 344 ta umumta'lim maktablarida 431,2 ming o'quvchi tahsil oladi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ta'lim muassasalari soni 9,7 foizga, o'quvchilar soni 9,0 % ga oshdi.


Toshkent shahrida 11 yillik majburiy ta'lim joriy qilingan bo'lib, boshlang'ich (1-4 sinf ) va o'rta (5-11 sinf ) ta'limga bo'linadi.

### **Umumta'lim muassasalaridagi sinf guruhlari bo'yicha o'quvchilar soni**

**1-4 sinflar - 189,2**

**5-9 sinflar - 194,5**


**10-11 sinflar - 43,5**






2018-2019 o'quv yili boshiga umumta'lim maktablarining 1-4 sinflaridagi o'quvchilar soni 189,2 ming nafarni, 5-9 sinflaridagi o'quvchilar soni 194,5 ming nafarni va 10-11 sinflaridagi o'quvchilar soni 43,5 ming nafarni tashkil qildi.



## 2018-2019 o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarining tumanlar bo'yicha taqsimlanishi



Umumta'lim muassasalari soni – **344 ta** ulardan:



**Umumiy o'rta**  
**320**


**Boshlang'ich 8**

**Boshqa 16**

Toshkent shahrida turlari bo'yicha umumta'lim muassasalari uch turga bo'linadi: boshlang'ich, umumiy o'rta va boshqa ta'lim muassasalari. Jami umumta'lim muassasalarining 320 tasi umumiy o'rta ta'lim, 8 tasi boshlang'ich ta'lim va 16 tasi boshqa ta'lim muassasalaridan iborat. Ulardan: umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 423,2 ming nafar, boshlang'ich ta'limda 0,6 ming nafar va boshqa umumta'lim muassasalarida 4,0 ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda.



### Tumanlar kesimida turlari bo'yicha umumta'lim muassasalari soni






**Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan umumta'lim muassasalari soni (tumanlar kesimida)**

|                        | Umumta'lim muassasalari soni, birlik |                      |
|------------------------|--------------------------------------|----------------------|
|                        | 2017/2018 o'quv yili                 | 2018/2019 o'quv yili |
| Toshkent sh.           | <b>25</b>                            | <b>29</b>            |
| Shu jumladan tumanlar: |                                      |                      |
| Uchtepa                | <b>3</b>                             | <b>3</b>             |
| Bektemir               | -                                    | -                    |
| Yunusobod              | <b>3</b>                             | <b>5</b>             |
| M.Ulug`bek             | <b>2</b>                             | <b>3</b>             |
| Mirobod                | <b>2</b>                             | <b>3</b>             |
| Shayxontohur           | <b>3</b>                             | <b>2</b>             |
| Olmazor                | <b>2</b>                             | <b>2</b>             |
| Sirg`ali               | <b>2</b>                             | <b>2</b>             |
| Yakkasaroy             | <b>3</b>                             | <b>3</b>             |
| Yashnobod              | <b>1</b>                             | <b>1</b>             |
| Chilonzor              | <b>4</b>                             | <b>5</b>             |




## Umumta`lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari, tumanlar kesimida



## Umumta`lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi


2018-2019 o'quv yilida jami maktablarning (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktablaridan tashqari) 91 tasi (27,7%) bir smenada, 226 tasi (70,5%) ikki smenada va 6 tasida (1,8%) uch smenada ta`lim olib boriladi. Ulardan birinchi smenada 285,1 ming nafar (67,3%), ikkinchi smenada 136,5 ming nafar (32.2%) va uchinchi smenada 2,2 ming nafar (0,5%) o'quvchi tahsil olmoqda.

## Umumta`lim muassasalari mashg`ulotlarining smenaliligi\*, %



\*jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo`lgan bolalar tahsil oladigan maktablardan tashqari

## Umumta`lim muassasalari mashg`ulotlarining smenaliligi, tumanlar kesimida, birlik




\*jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo`lgan bolalar tahsil oladigan maktablardan tashqari




## **Umumta`lim muassasalarining tillar bo'yicha taqsimlanishi**

*(jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar tahsil oladigan maktablardan tashqari)*



## **Umumta`lim maktablarida pedagog xodimlar ulushi (%) tumanlar kesimida**





- Olmazor
- Bektemir
- Mirobod
- M.Ulug`bek
- Sirg`ali
- Uchtepa
- Chilonzor
- Shayxontohur
- Yunusobod
- Yakkasaroy
- Yashnobod


*\*o`rindoshlarsiz*




***Umumta`lim muassasalarining pedagog kadrlari***

## O'qituvchilar soni (o'rindoshlarsiz), kishi.

Ta'lim tizimini qanchalik rivojlanayotganligini ko'rsatuvchi ko'rsatkichlardan biri, ya'ni har bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni tumanlar kesimida keltirilgan. Toshkent shahrida har bir o'qituvchiga o'rtacha 20 nafar o'quvchi to'g'ri keladi.



2018-2019 o'quv yili boshida har bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni Bektemir tumanida 22 nafarni, Yakkasaroy tumanida 17 nafarni tashkil qilmoqda.




2018/2019 o'quv yili boshiga o'qituvchilar soni (o'rindoshlarsiz) 21,8 mingtani tashkil qiladi. Ushbu diagrammadan ko'rinib turibdiki, 2018/2019 o'quv yili boshiga pedagog kadrlar soni 11,2 % ga oshgan. Oliy ta'lim muassasalarini bitirgan yoshlar pedagog kadrlar qatorini to'ldirmoqda. 10-11 sinflar ochilishi ham umumta'lim muassasalarida o'qituvchilar sonining oshishiga sabab bo'lmoqda. O'tgan yilga nisbatan 10-11 sinf o'quvchilari soni 37,0 ming nafarga oshgan.(67,4%).



### 2018/2019 o'quv yili boshiga pedagog xodimlarning malakasi bo'yicha ulushi (%)

| Oliy              | 96 | O'rta maxsus      | 3,2 |
|-------------------|----|-------------------|-----|
| Ulardan pedagogik | 95 | Ulardan pedagogik | 3,0 |




### *Jami pedagog xodimlar sonidan ayollar ulushi (%)*

| <b>O'quv yili boshiga</b> | <b>Ayol pedagoglar ulushi %</b> | <b>Jumladan: boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari</b> |
|---------------------------|---------------------------------|---|
| <b>2017/2018</b>          | <b>88,7</b>                     | <b>99,4</b>   |
| <b>2018/2019</b>          | <b>87,9</b>                     | <b>99,6</b>   |



### Ayol pedagoglar ulushi , %



2017/2018 o'quv yili boshiga ayol-pedagoglar soni 87,9 foiz, 2018/2019 o'quv yili boshiga ular soni 88,7 foiz bo'lgan. Ulardan boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari 2017/2018 o'quv yilida 99,4 foiz, 2018/2019 o'quv yilida 99,6 foizni tashkil qildi.